



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 7-noyabr, seshanba,  
132 (23.851)-son

**KUN  
HIKMATI**

Omadsizligi  
sababini o'zidan  
axtarmagan  
odam omadga  
erisha olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## Madaniy merosimizni o'rganish, saqlash va targ'ib etish yo'lida

Shu kunlarda Samarqand shahrida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston madaniy merosi — yangi Renessans asosi" VII xalqaro kongressi o'tkazilmoqda.



Samarqand shahrida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) bilan hamkorlikda "Yashil shahar" master-rejasini ishlab chiqish maqsadida o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Mashg'ulotda viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlari qatnashdi.

- Mazkur treningning asosiy maqsadi hokimliklarga "Yashil shahar" harakat rejasini ishlab chiqishga ko'maklashishdir, - dedi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining birinchi o'rinbosari O.Qudratov. - Trening davomida "Shaharning ekologik

## "YASHIL SHAHAR" QACHON, QANDAY BARPO ETILADI?

vaziyatini baholash va zarur yechimlarni ishlab chiqishda mavjud muammolar va imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha yondashuv", "Shaharlarining, atrof-muhitning asosiy holati to'g'risidagi bilimlarni ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali ma'lumotlar va solishtiruvchi tahlil natijalarini to'plash orqali kengaytirish", "Rivojlanayotgan milliy siyosat va qonunchilik kontekstini ko'rib chiqish mahalliy hokimiyat organlari dara-

jasida ekologik yaxshilanishlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin" kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Mashg'ulot davomida hokimlikning iqtisodiy va ijtimoiy kapitalini yaratish bilan birga atrof-muhit holatini yaxshilashga bevosita ko'maklashish uchun turli manbalardan investitsiyalar olish imkoniyatlari to'g'risida tushunchalar berildi.

**B.MUSTANOV.**

Unda dunyoning 40 ga yaqin mamlakatidan 300 nafardan ortiq tarixchi, matnshunos va manbashunos olimlar, muzey xodimlari, ilmiy jamoatchilik vakillari ishtirok etmoqda.

Kongressning ochilish marosimida keyingi yillarda mamlakatimizda boy madaniy merosimizni o'rganish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi. 2018-yildan buyon faoliyat olib borayotgan O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

O'tgan davrda yuzlab olimlar, mahalliy va xalqaro ekspertlar, mutaxassislar ko'magida dunyoning turli o'lkalarida saqlanayotgan o'zbek xalqining noyob madaniy merosi haqida to'plangan ma'lumotlar "O'zbekiston madaniy merosi" turkumida 70-jildida chop etildi.

- O'zbekiston ko'p asrlik, boy tarix va madaniy merosga ega, Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan yurt, - dedi xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti - Turksoy Bosh kotibi Sulton Rayev o'z tabrik so'zida. - Uning tarixi va madaniyati nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarining, balki butun dunyo turkiy xalqlari o'tmishining yorqin bir sahifasidir. Turkiy xalqlarning umumiy madaniyatini o'zbek xalqi madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu xalqning boy madaniy merosini o'rganish va asrab-avaylash uchun keyingi yillarda Prezident boshchiligidagi keng ko'lamli ish olib borilmoqda. Binobarin, madaniy merosini saqlash millatning o'zligini saqlash bilan barobardir. Shu jihatdan o'zbekning madaniyati - Amir Temurning qilichi, Mirzo Ulug'bekning yulduzlari, Navoiyning qalami va Boburning jasorati bilan, Beruniyning donishmandligi va Imom Buxoriyning duosi bilan yuzaga kelgan muqaddas meros.

Xalqaro kongressda "O'zbekiston madaniy merosi" turkumidan 61-70-jildlardan iborat 10 ta yangi kitob-albom taqdim etilmoqda. Ozarbayjon, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya (shu jumladan, Tatariston), Turkiyadagi O'zbekiston madaniy merosi to'plamlariga bag'ishlangan kitob-albomlar shular jumlasidan.

Bundan tashqari, WOSCUning "Sharq miniatyurasida tarixiy shaxslar", "Klavixo: Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)", "Rishton kulolchiligi", "O'zbekiston san'ati durdonalari", "Orol va Amu bo'yilarida: qoraqalpog' san'ati", "Badiiy atamalar ensiklopediyasi" albomlari, shuningdek, "Bezak ensiklopediyasi" mavzulariga bag'ishlangan rejalaridagi nashrlar, "O'zbekiston gilamlari", "114 Qur'on", "Sharqning 100 nodir qo'lyozmasi" loyihalari ham kongress ishtirokchilariga taqdim etildi.

Kongress doirasida dunyo mamlakatlari tarixi va tarixiy shaxslari haqida filmlar yaratish uchun Turkiy mamlakatlari kino tashkilotlarining ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirishning yangi mexanizmlari tahlil qilindi. Ilmiy konferensiyalar, ko'rgazma va taqdimotlar ham o'tkazilmoqda.

**G'.HASANOV,  
A.ISROILOV (surat).**



## Qo'shrabotlik o'quvchilar xalqaro olimpiada g'olibi

Dubayda maktab o'quvchilari o'rtasida mental arifmetika bo'yicha xalqaro olimpiada bo'lib o'tdi.

15 ga yaqin mamlakat o'quvchilari qatnashgan musobaqada Qo'shrabot tumani 26-umumta'lim maktabining 5 nafar o'quvchisi g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

- Bu o'quvchilarimizning xalqaro maydonda erishgan muvaffaqiyatlarining birinchisi emas, - deydi g'olib o'quvchilarning maktabdagi ustozlari Rohila Rustamova. - Shu yil iyul oyida

Qirg'izistonda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada g'olib bo'lgandik. Umuuman, mazkur musobaqada o'quvchilarimga oson bo'lmadi. Raqiblari Osiyo va yevroosiyolik o'quvchilar edi. Shunga qaramay, 300 nafar o'quvchilar ichida g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olib, barchamizni xursand qilishdi. Bu muvaffaqiyatlarimizning boshlanishi, hali eng katta yutuqlarimizning barchasi oldinda.

Musobaqada Bobur Yo'lliboyev birinchi, Nigina Abdusalomova ikkinchi, Sarvarbek Quvondiqov, Marjona Lapasova hamda Kamron Karomatov uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

**Fayzi TOSHPOLATOV,  
nurobodlik mehnat faxriysi:**

- "Zarafshon" salkam oltmish yillik qadrdonim. Keyingi yillarda gazetani hafta-o'n kunda bir jamlab olsam-da, oilaviy o'qiyimiz. Viloyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga doir yangiliklar, tahliliy-tanqidiy, mulohazaga chorlovchi materiallarini farzandlar, kelinlar va nabiralalar bilan muhokama qilamiz. Bu yoshlarni telefondan, internetdagi bo'lar-bo'lmas axborotlardan chalg'itadi. Siz ham sinab ko'ring, mutolaaning foydasi ko'pligiga amin bo'lasiz.



**OBUNA -  
2024**

## Samarqand marafoni g'oliblari aniqlandi

4-5-noyabr kunlari Samarqandda "Samarkand Marathon" an'anaviy xalqaro xayriya yugurish marafoni bo'lib o'tdi. Musobaqaning ochilish marosimida viloyat hokimi E.Turdimov, Yoshlar siyosati va sport vaziri A.Ikromov hamda Prezident huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori M.Olloyorov ishtirok etdi.



Marafonda 40 ga yaqin davlatdan 3000 nafar ishtirokchi 2, 5, 10, 21 va 42 kilometr masofani bosib o'tdi.

Musobaqa natijasiga ko'ra, 2 kilometr masofada o'zbekistonlik ishtirokchilar Alisher Safarov va Farangiz Abdujalilova finishga birinchi bo'lib yetib keldi.

5 kilometr masofaga o'tkazilgan bahsda marra chizig'ini andijonlik Dilmurod Xo'jamov, ayollar o'rtasida Anastasiya Silchenkova birinchi kesib o'tib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Marafonning 10 kilometrlik bahslarida g'oliblik farg'onalik Ahror Mahmudaliyev va Kamola Ablayeva-

ga nasib etdi.

21 kilometr masofaga o'tkazilgan erkaklar bahsida rossiyalik Mixail Kulkovga teng keladigani topilmadi. Ayollar o'rtasida esa belaruslik Svetlana Kudzelich g'olib bo'ldi.

Marafonning 42 kilometr-ga yugurish bellashuvlarida erkaklar o'rtasida o'zbekistonlik Bekzod Boymatov, ayollar bahsida ukrainalik Yekaterina Vasilchenko marra chizig'ini birinchi bo'lib bosib o'tdi.

Musobaqada turli yosh toifasi bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi va pul mukofoti hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**F.RO'ZIBOYEV.**

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan bu kabi shiddatli rivojlanish eng avvalo, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ham o'sishiga olib kelmoqda. Kundan-kunga aholi soni oshib borayotgan mamlakatimizda odamlarning turmush sharoiti, yashash tarzi ham o'zgarib, mushkulini oson qiladigan maishiy texnika jihozlari ko'paymoqda.

## Elektr uzilishiga qachon barham beriladi?

Har bir yaxshi imkoniyat ortida katta qiyinchiliklar mavjudligini elektr energiyasi sohasida uchray turgan uzilishlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Sababi, yoz yoki qish faslida saylovchilardan kelib tushadigan murojaatlarning katta qismi "chiroq" o'chib qolishi bilan bog'liq bo'ladi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bugungi kunda uzilishlarning asosiy sababi — tarmoqlarning haddan tashqari eskirganligida. Ishonish qiyin, biroq yurtimizdagi mavjud elektr uskunalarining 40 foizdan ortig'i eskirgan. Misol uchun, elektr uzatish tarmoqlarining 46 foizi, podstansiyalarning 51 foizi, transformator punktlarining esa 100 tadan 36 tasi foydalanish muddatini o'tab, bo'lgan. Aynan shuning uchun qattiq sovuq yoki issiq bo'lsa, qayerlardadir tok uzulib qoladi. Bu esa odamlarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lyapti.

Tarmoqlarning eskirgani tufayli elektr energiyasini iste'molchiga yetkazib berishda ham yo'qotishlar kuzatilmoqda. Agar rivojlangan davlatlarda bu miqdor 7-8 foizni tashkil qilsa, bizda 20-25 foizgacha yetadi. Bu nima degani? Aytaylik, joriy yilda 70 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Tarmoqlar eskirgani tufayli uning 14-17,5 milliard kilovatt-soat hajmdagisi iste'molchiga yetib bormayapti.

Yo'qotilayotgan mazkur 14 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi esa bir oyda o'rtacha 200 kilovatt-soat tok yoqadigan 5 million 833 mingdan ortiq iste'molchining 1 yillik iste'moliga tengdir.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda juda ko'p qurilishlar qilindi, yangi turarjoylar bunyod etildi. Xalqimiz hayoti farovonlashib, ko'pchilik 3-4 xonali eski uyini buzib, kimdir ikki, yana kimdir uch qavatli, kamida 10-15 ta xonali uy-joy qurib oldi. Biroq o'sha hududlarning aksariyatida transformator, elektr simlari eskirgacha qoldi. Bundan 30-40 yil oldin bitta transformator hududdagi uylarda yoqiladigan o'rtacha 3-4 mingta lampochka, har bitta xonadon uchun bitta televizor, bitta changyutkich va bitta muzlatkich hisobga olinib o'rnatilgan edi. Energiya resurslari va mavjud quvvatlariga tushadigan yuklamlar hisobga olinmasdan amalga oshirilgan qurilishlar tufayli bugun o'sha transformator 10-15 mingta lampochka, aksariyat xonadonlarda 3-4 ta televizor, 2-3 ta muzlatkich, 2-3 ta konditsioner, kompyuter, mikroto'lg'inli pech, noutbuk, 10 tagacha mobil telefon, changyutkich, kir yuvadigan mashina va boshqa zamonaviy elektr jihozlari yoqish uchun elektr energiyasi yetkazib berishiga to'g'ri kelmoqda.

Elektr energiyasidagi uzilishlarga to'liq barham berish tizimli va uzoq vaqtni talab qiladi. Xususan, 2030-yilga qadar katta kuchlanishni ko'tara oladigan 9 ming 885 kilometr elektr simlari va umumiy quvvati 37 ming 290 megavatt-amper bo'lgan 53 ta podstansiya qurilishi belgilangan. Bu ishlab chiqarilgan elektr energiyasining atigi 5-6 foiz yo'qotish bilan iste'molchiga yetib borishini ta'minlaydi. Natijada bugun yo'qotilayotgan elektr energiyasining 11-14 milliard kilovatt-soati saqlab qolinadi. Bu esa bir oyda o'rtacha 200 kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qiladigan 4 million 583 mingdan ziyod iste'molchining bir yillik elektr sarfiga tengdir.

Shuningdek, jami uzunligi 6 ming 195 kilometrdan iborat 500 kilovolti va 3 ming 690 kilometrli 220 kW quvvatga mo'ljallangan elektr uzatish kabellari hamda umumiy quvvati 26 ming 640 megavatt-amper bo'lgan 22 ta 500 kW va umumiy quvvati 10 ming 650 megavatt-amper bo'lgan 31 ta 220 kW podstansiyalar, umumiy quvvati 2 ming 918 megavatt bo'lgan energiya saqlovchi (batareya) qurilmalari quriladi. Buning natijasida tarmoqlardagi uzilishlarga to'liq barham beriladi.

Shu bilan birga, 2023-2030-yillarda respublika hududlarida 0,4-110 kW kuchlanishli taqsimlash elektr tarmoqlarini yangilash hamda modernizatsiya qilish dasturi bo'yicha 109 ming 858 kilometr elektr uzatish tarmoqlarini, 52 ta 35-110 kW quvvatga ega podstansiyalarni va 34 ming 908 ta transformator punktni yangilash rejalashtirilgan. Bu ishlar yakuniga yetgach, respublikadagi 7,4 million iste'molchining 3,5 millionidan ortig'ida elektr ta'minoti yaxshilanadi. Boshqacha aytganda, kelgusi 40 yil mobaynida ularning elektr ta'minotida hech qanday muammo bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, uzilishlarga barham berishning yagona yo'li - eskirgan tizimni yangilash va modernizatsiya qilish. Buning uchun esa sohaga to'shimcha mablag' kiritish zarur, aholini energiya resurslaridan oqilona foydalanishga o'rgatish kerak. Elektr va gaz tariflarining o'sishi, o'z navbatida, bir tomondan, tizimni modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb etishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, aholini elektr energiyasini tejashga o'rgatadi. Chunki energiyadan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmas ekan, energiya manbalarini ishlab chiqarish qanchalik ko'paytirilmasin, ortib borayotgan talabni qondirish mushkul vazifa bo'lib qolaveradi.

**Bekmirza ESHMIRZAYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## Uchta reytingda davlatimiz ilk marotaba e'tirof etildi

**O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (O'zNNTMA) va O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Adliya vazirligi, "Yuksalish" umummilliy harakati Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va boshqa manfaatdor davlat organlari va NNTlar hamkorligida "Inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlarining hamkorligi" mavzuida nodavlat notijorat tashkilotlarining II Milliy forumi tashkil etildi.**

Bir guruh samarqandlik nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, turli sohalar mas'ullari mazkur forumda onlayn ishtirok etdi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda, - dedi Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz rahbari Akmal Saidov. - Xususan, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasi qabul qilindi. Uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning jami 78 bandidan 62 bandi bo'yicha ishlar bajarilgan, 16 bandni amalga oshirish



bo'yicha ishlar davom etmoqda. Birgina 2022-yilning o'zida Milliy strategiya doirasida yangi Mehnat kodeksi qabul qilinib, mehnatga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslari insonning mehnat huquqlariga oid xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Buning natijasida 2021-2022-yillarda qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat

# CHO'YANCHI OBOD MASKANGA AYLANMOQDA

**Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joylarda davlat va hududiy dasturlar doirasida hududlar infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq loyihalar amalga oshirilmagan manzillarda aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida bunyodkorlik ishlari olib bormoqda.**

Jumladan, viloyatimizning Kattaqo'rg'on tumani-dagi Cho'yanchi, Ishtixon tumanidagi Chag'atoy, Past Darg'omdagi Olti qahramon hamda Oqdaryodagi Yangiqo'rg'on mahallalarida ushbu tizim asosida keng ko'lami qurilish-bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

4200 nafardan ziyod aholi yashaydigan Kattaqo'rg'on tumani Cho'yanchi mahallasida bu kabi ezgu ishlar 859 ta aholi xonadonini xatlovdan o'tkazishdan boshlandi. Hududdagi elektr, gaz, suv ta'minoti, yo'llar va ijtimoiy soha obyektlarining holati o'rganilib, yo'l xaritasi ishlab chiqildi va har bir masala bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Dastlab mahallamizdagi "Ko'ktosh", "Qizbuvi", "Chashma" va "Xo'jaturk ota" qabristonlari obodonlashtirildi, - deydi Cho'yanchi mahallasi raisi Dilshod Saidmurodov. - Mahalladagi 9 kilometr ichki yo'llar shag'allashtirildi. Payshanba-Tarnov-Cho'yanchi yo'lining 6 kilometr qismiga asfalt yotqizildi. Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 4600 metr tarmoq tortilib, Tursunxo'ja qishlog'iga bitta yangi transformator qo'yildi. Shuning-



dek, 4 dona transformator mukammal ta'mirlandi, 77 dona temir-beton ustun o'rnatildi.

Ma'rifat ko'chasidagi artezian qudug'i tozalandi, suv nasosi o'rnatilib, toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Suv minorasida ta'mirlash ishlari yakunlanib, 2 kilometr suv tarmog'i tortildi. 8,5 kilometr optik aloqa tarmog'i tortildi.

"Obod xonadon" mezon bo'yicha mahalladagi 321 ta ta'mirtalab uy-joy xonadon egalari va homiylar ko'magida ta'mirlanmoqda.

Mahallada aholi bandligi va doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida 45 nafar ishsiz fuqaro ishga joylashtirildi.

**BU FAKT!**

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17,2 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,4 foizni tashkil etdi.

## "YOSHLAR BOG'I" BARPO ETILYAPTI



Samarqand iqtisodiyot va servis institutida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi mavsumda 2370 dona ko'chat ekilishi rejalashtirilgan.

Hozirga qadar institutga qarashli Mironqul dam olish maskani, Ishtixon amaliyot poligoni, avtomobilsozlik texnikumi, Past Darg'om xizmat ko'rsatish texnikumi va Kattaqo'rg'on servis texnikumi hududlarida 1000 tupdan ziyod mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi va bu ishlar davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, Qorasuv massivida institut tashabbusi bilan "Yoshlar bog'i" barpo etilmoqda. Bugunga qadar boqqqa 60 tup mevali va 60 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.



**HOZIR**

**Shoim KENJAYEV,**  
O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi boshlig'i.

Viloyat Matbuot uyida "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali direktorining birinchi o'rinbosari, bosh muhandis Vahob Halimov ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi. Mas'ulning qayd etishicha, bugungi kunda viloyatimizda 322 mingga yaqin tabiiy gaz iste'molchilarining qariyb 318 mingga avtomatlashtirilgan "aqli" hisoblagichlar o'rnatilgan. Filialda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 3,5 kilometr quvur, 2000 dona maishiy gaz ballon, 20 ta texnika va Toyloq tumanlarida 2 ta suyultirilgan gaz ballonlari to'ldirish shoxobchasi bilan shartnoma tuzilgach, qariyb 56 ming iste'molchiga suyultirilgan gaz tashib kelish masofasi 70 kilometr dan 18 kilometr qisqardi.

## Gaz tarmog'i qishga tayyormi?

Joriy yilda 19,5 kilometr gaz tarmoqlari va 44 dona gaz taqsimlash punkti mukammal ta'mirlanib, 14587 ta aholi xonadonida gaz ta'minoti yaxshilandi. Samarqand gaz to'ldirish stansiyasida 25 ta gaz quyish kolonkasi o'rnatilib, oylik tarqatish quvvati 1500 tonnadan 2000 tonnaga yetkazildi. Jomboy va Toyloq tumanlarida 2 ta suyultirilgan gaz ballonlari to'ldirish shoxobchasi bilan shartnoma tuzilgach, qariyb 56 ming iste'molchiga suyultirilgan gaz tashib kelish masofasi 70 kilometr dan 18 kilometr qisqardi.



Mavsum arafasida aholi uchun 45588 tonna suyultirilgan gaz mahsuloti ajratildi. Joriy yil boshidan buyon qo'shimcha 8 ming dona maishiy gaz balloni tarqatildi.

- Biroq hali ishlarimiz ko'p, - deydi Vahob Halimov. - Jumladan, Samarqand tumani Gulobod qo'rg'onidagi 54 ta ko'p qavatli uy uchun 3 kilometr masofaga gaz tarmog'i tortishimiz kerak. Shuningdek, deyarli barcha tumanlarda o'z vaqtida tugallab ulgurmag'an obyektlarimizni yakuniga yetkazamiz.

Hozirda korxonalar mutaxassislari tomonidan tabiiy gaz iste'molchilari sodir etgan 725 ta noqonuniy holat aniqlangan. Aholining qarzi 301,8 milliard so'mni tashkil etyapti.

Dilmurod TO'XTAYEV.

## Yangi kafedra dori-darmon bilan bog'liq muammolarga yechim izlaydi

Farmatsevtika sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash davrning dolzarb masalalaridan biri. Bundan uch yil avval Samarqand davlat tibbiyot universitetida farmatsiya fakulteti tashkil etildi. O'tgan o'quv yili boshida mazkur fakultetda farmatsevtik va toksikologik kimyo kafedrasida faoliyat boshlandi.

- Kafedramizda o'qitiladigan fanlar jahonda, xususan, mamlakatimizda soha bo'yicha mavjud muammolarga yechim taklif qilishga asoslangan, - deydi kafedraning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha

mutaxassisi Tohirjon Anvarov. - Ishlab chiqarilayotgan preparatlarning tarkibi, miqdori, eng muhimi, toksikologik ta'siri va mexanizmlarini o'rganishga asoslangan fanlar malakali professor-o'qituvchilar tomonidan o'qitilmoqda.

Kafedra bir necha xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shuning uchun bu yerda ingliz tilini quvur o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Talabalar orasida chet tili bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatga ega yoshlar safi kengayib boryapti. Natijada farmatsiya yo'nalishida ilk bor magistrantlar qabul qilindi. Ular hozirda ilmiy faoliyatini shu kafedrada davom ettirmoqda.

Jo'shqin NARZULLAYEV.

# MO'L-KO'LCHILIKDA, BOY-BADAVLAT YASHASHNI XOHLASAK...

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda).

## Mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat yashashning yashirin siri

Jahon amaliyotida aholi jon boshiga yoki iqtisodiyotda band bo'lgan har bir xodimga to'g'ri keladigan YAİM hajmi ko'rsatkichi keng qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashda formulaning suratida mamlakatda yil davomida yaratilgan tovarlar va xizmatlar hajmi, ya'ni YAİM - ijtimoiy ishlab chiqarishning yakuniy natijasi, uning maxrajida esa ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun jamiyatda mavjud imkoniyatlar - aholi va uning tarkibidagi iqtisodiyotda band bo'lganlar soni o'z ifodasini topgan.

Internetda iqtisodiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri - unumdorlik xususida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Unumdorlik jadvalida 137 ko'rsatkich bilan Irlandiya pesh-qadamlik qilmoqda, AQSH 114 ko'rsatkichi bilan 12-o'rinni egallagan. Agar ushbu ko'rsatkich qo'lga olingan natijaning (mahsulot hajmining) uni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sarf-xarajatlarga nisbati bilan o'lchanishini inobatga olsak,

mamlakatimizda qimmatbaho iqtisodiy resurslardan (mehnat, mehnat qurollari, jihozlar, asbob-uskunalar, elektr quvvati, gaz, suv va hokazolar) foydalanish qay darajada samarasiz ekanligi xususida aniq tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Xalqimizda "Shayxda hunar bo'lmasa, machitning ayvoni ham torlik qiladi", degan ajoyib naql bor.

Modomiki, biz tabiat va jamiyat in'om etgan bebaho iqtisodiy resurslardan unumli foydana olmas ekanmiz, mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat yashamayotganligimiz o'zimizdan boshqa kim aybdor?

Bizningcha, buning xalqaro tajribada o'zining to'la isbotini topgan, mantiqan inkor etish qiyin bo'lgan yo'li - iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurni yuksaltirish, ularning cheksiz, yashirin imkoniyatlaridan unumli foydalanib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishdan iborat.

## Iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy faoliyat tushunchalari xususida ayrim mulohazalar

Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy ong zamirida yuzaga keladi, undan ozuqa oladi. O'z navbatida, iqtisodiy tafakkur iqtisodiy ongni rivojlantirish, uni takomillashtirishning, iqtisodiyot sohasidagi bilimlarni yangi darajalar-ga ko'tarishning muhim quroli hisoblanadi. Inson o'z ongida aksini topgan, xulq-atvor sifatida shakllangan iqtisodiy g'oyaning na hayotga tatbiq qilishi mumkin. Demak, aynan iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur insonning iqtisodiy faoliyati unumdorligini oshirishning, unga ushbu faoliyatdan yuqori samara olishga imkoniyat beradigan to'g'ri qarorlar qabul qilishning, o'z mehnatidan tegishli natija olish va boy-badavlat yashashning yagona sharti hisoblanadi.

Insonga iqtisodiy ong bo'lmasa, iqtisodiy tafakkur ham bo'lmaganidek, iqtisodiy ong ham iqtisodiy tafakkursiz rivojlanmaydi. Insonning iqtisodiy ongi qancha baland bo'lsa, uning kognitiv tafakkuri, iqtisodiy mavzularda mushohada yuritish qobiliyati ham shuncha kuchli bo'ladi.

Iqtisodiy ong - tashqi olamda sodir bo'layotgan iqtisodiy voqe'lar, iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiyot borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning in'ikosidir. U ijtimoiy ongning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, unda iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy hayot borasida jamlangan boy tajriba bilan birgalikda, insonning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlari, ijtimoiy-iqtisodiy realikni baholash to'g'risidagi dunyoqarashi va xulq-atvori o'z aksini topadi.

Iqtisodiy tafakkur esa inson aqlining oliy mahsuloti bo'lib, inson iqtisodiy ongi yanada

rivojlantirish, uni yuksak darajalarga ko'tarish, inson ongida allaqachon shakllangan iqtisodiy bilimlarni takomillashtirish, uni yangi g'oya va nazariyalar bilan to'ldirish, boyitish imkonini beruvchi jarayondir. Iqtisodiy tafakkur jarayonida inson o'zining kundalik hayoti va kelajagi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy muammolarning innovatsion yechimlarini izlab topadi. Boshqacha so'zlar bilan ifodalaganda, iqtisodiy tafakkur iqtisodiyot ilmini boyitishning, uni yangi darajalarga olib chiqishning qudratli quroli, lokomotividir. U insonning iqtisodiyotga oid turli-tuman axborotlarni qabul qilib, uni aql yordamida tahlil qilish va unga tayangan holda iqtisodiyot borasida samarali qarorlarni qabul qilishga qaratilgan yaratuvchanlik faoliyati.

Inson faoliyati tarkibida iqtisodiy faoliyat markaziy o'rinni egallaydi. Chunki inson aynan shu faoliyat yordamida ongida o'z aksini topgan ilmiy-nazariy g'oyalar va amaliy tajriba ta'siri ostida shakllangan bilimlarga, uning negizida paydo bo'lgan xulq-atvoriga tayangan holda tabiatga faol ta'sir ko'rsatadi. Pirovard natijada, u o'zining kundalik ehtiyojlari uchun suvdek zarur bo'lgan turli-tuman moddiy va ma'naviy noz-ne'matlarini ishlab chiqaradi. Yashashimiz va ish-lashimiz uchun bizga qulay sharoit yaratib beradigan hashamatli binolar, bog'u rog'lar, uzog'imizni yaqin qilayotgan avtomobillar, charchaganimizda jonimizga oro kiruvchi dam olish maskanlari, ta'lim muassasalari, mazali taomlar, biz sevib o'qiydigan kitoblar - bularning barcha-barchasi inson iqtisodiy faoliyatining mevalaridir. Jamiyatdagi barcha

tirik jon dunyosida faqat insongagina xos ushbu nodir fazilat insonning tabiat ustidan hukmronlikka erishishining bosh omili, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lami.

Xalqning (alohida individning) to'g'chilik va mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat hayot kechirishi birinchi galda, iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurning hosilasi, insonning o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatilayotgan iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan unumli foydalana olganligi uchun iqtisodiyotning unga hadya etgan tuhfasidir, mukofotidir.

Afsuski, iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurning mohiyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishdagi alohida ahamiyati, ularni shakllantirish va rivojlantirish muammolari tadqiqotchilarimiz e'tiboridan chetda qolib ketmoqda. Tovar-pul munosabatlari batamom izdan chiqqan rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ong va tafakkurning jamiyat taraqqiyotidagi roli sezilarli darajada susaygan edi. Lekin tovar-pul munosabatlariga keng yo'l ochib bergan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida vaziyat tubdan o'zgardi, ushbu omilning mamlakat iqtisodiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli esa keskin oshdi. Shu sababli iqtisodiy ong va tafakkurning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi rolini oshirish muammolari aktuallashti va bu borada tizimli tadqiqotlarni amalga oshirish, inson iqtisodiy ongi va tafakkurini zamon talablarini darajasiga ko'tarishning noan'anaviy usul va mexanizmlarini izlab topish, ularni amaliyotga joriy etish zaruratga aylandi.

## Iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurini zamon talablari darajasiga ko'tarishning ikkita asosiy yo'nalishi

Tadqiqotlar jarayonida Yangi O'zbekistonda iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurning cheksiz imkoniyatlarini ro'yog'ga chiqarish, ularni hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarish asosida mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning yetakchi omiliga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ikkita yo'nalishda amalga oshirish samara beradi, degan xulosaga keldik.

Birinchi - jamiyat a'zolarining iqtisodiy ong doirasini kengaytirish, uni iqtisodiyot sohasidagi yangi zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, aholi keng qatlamlari orasida ijtimoiy-iqtisodiy borliqni o'zida to'la aks ettirishga qodir mukammal iqtisodiy ongni shakllantirish, keng xalq ommasini, aholi barcha qatlamlarini davr talablarini ruhida tarbiyalash, ularning ongi yangi, bozor iqtisodiyotiga xos zamonaviy iqtisodiy bilimlar bilan boyitish. Ushbu tadbirlar aholi barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak, deb o'ylaymiz.

Mamlakat aholisi iqtisodiy savodxonligini oshirish keng qamrovi

tadbir bo'lib, u katta miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb qilishni taqozo etadi. Bu jihatdan ushbu tadbir jamiyatga juda qimmatga tushadi. Moliyaviy resurslar tanqisligi sharoitida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni aholi barcha qatlamlarining iqtisodiy savodxonligini oshirish orqali uning iqtisodiy ongi yangi zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga sarflash iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan oqilona, degan tabiiy savol tug'iladi? Albatta, oqilona. Chunki aholi iqtisodiy ongi yangi zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga sarflangan moliyaviy resurslar mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi va natijada mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishning ishonchli omiliga aylandi.

**M.MUHAMMEDOV, M.PARDAYEV, iqtisod fanlari doktorlari, SamISI professorlari.**

(Davomi kelgusi sonlarda).

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**UMUMIY YIG'ILISHLAR O'TKAZILADI!**  
"Oqdaryo savdo kompleksi" MCHJ ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 9-noyabr kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi. Yig'ilishga jamiyatning barcha ta'sischilari va qiziquvchi tashkilot rahbarlari taklif etiladi.

**KUN TARTIBIDA:**  
1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-yanvardagi "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-814-sonli qaroriga asosan jamiyat faoliyatini takomillashtirish masalasi;  
2. "Jamiyat ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish", "Nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida" va "Ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash masalasi;  
3. Jamiyat kuzatuv kengashi faoliyatini tugatish to'g'risida.  
**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharчасi, Amir Temur ko'chasi, 65-uy.**

"Oqdaryo vebqon bozori" MCHJ ta'sis-chilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 10-noyabr kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi. Yig'ilishga jamiyatning barcha ta'sischilari va qiziquvchi tashkilot rahbarlari taklif etiladi.

**KUN TARTIBIDA:**  
1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-yanvardagi "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-814-sonli qaroriga asosan jamiyat faoliyatini takomillashtirish masalasi;  
2. "Jamiyat ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish", "Nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida" va "Ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash masalasi;  
3. Jamiyat kuzatuv kengashi faoliyatini tugatish to'g'risida.  
**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharчасi, Amir Temur ko'chasi, 69-uy.**

**DA'VOLAR BO'LSA...**  
Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Xaydarov Asam Sayidovichga (2022-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova

Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Shamina Lyudmila Parmenovna (2023-yil 10-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Mirzayev Jamolga (2022-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharчасi, Nodirabegim ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ganiyev Nusrat Gafurovichga (2018-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Shamsutdinov Najmidding (2021-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Alimov Odil Tuxtamurodovichga (2021-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Gabbasova Sarbiga (1998-yil 11-aprel va vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**


veyich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharчасi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy. Telefon +99890-502-69-86.**

**BEKOR QILINADI**  
Fuqaro Xamdamiy Ulug'bek Bozor o'g'liga qarashli Samarqand shahri "Mir Said Baraka" MFY, Amir Temur ko'chasi 87-yakka tartibdagi turarjoyning (kadastr raqami - 14:16:03:02:02:1121) oldi-sotdi shartnomasi (Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasidan 2021-yil 8-oktabrda tasdiqlangan) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Xamdamiy Ulug'bek Bozor o'g'liga qarashli Samarqand shahri "Mir Said Baraka" MFY, Amir Temur ko'chasi 87-yakka tartibdagi turarjoyning (kadastr raqami - 14:16:03:02:02:1120) oldi-sotdi shartnomasi (Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasidan 2021-yil 11-oktabrda tasdiqlangan) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetidan 2022-yilda Xandalova Go'zalxon Karimovna nomiga berilgan MO 007417 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



#### Rauf Parfi tavalludining 80 yilligiga

O'tgan asr o'zbek adabiyoti tarixida shunday iste'dod egalari borki, ularning hayoti ziddiyatlar, ko'ngilsizliklar, fojialarga boy. Shu kunlarda tavalludining 80 yilligi mamlakatimiz adabiy jamoatchiligi tomonidan keng nishonlanayotgan O'zbekiston xalq shoiri, betakror tarjimon, jurnalist Rauf Parfi ana shunday ijodkorlardan biridir. Yigirmanchi asr she'riyatida Rauf Parfi ijodi alohida o'rin tutadi. Adabiyotshunos olimlarning fikricha, o'tgan asrning 50-60-yillarida shoir o'zining g'ayrioddiy noan'anaviy she'rlari bilan o'zbek she'riyatiga yangi pafos, yangicha ruh kiritgan. U tiriklik chog'idayoq klassikka aylangan zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin namoyandasi edi.

## Kamtarlikdan komillik izlayotgan olim

Samarqand davlat chet tillar instituti professori Muxtor Begmatov tabiatan kamsuqum, kamtarin inson. Kim bilan suhbatlashmasin, hurmatini joyiga qo'yishga harakat qiladi. Uning so'zida ma'ni, ko'nglida yuksaklik mujassam. Olimligini pesh qilib, maqtanishdan, o'zgalarning dilini og'ritishdan yiroq. Biroq gap ilm haqida, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi xususida borganda ochilib ketadi. O'shanda o'ziga ishongan, kasbidan halovlat, mehnatidan baxt topgan tom ma'nodagi olimga, haqiqiy ustozga aylanadi. Shu bois M.Begmatovning jamoada, jamoatchilik hamda respublika oliy o'quv yurtlari olimlari orasida o'z o'rnini bor.

M.Begmatov 1953-yilda Paxtachi tumanidagi Qarnabota qishlog'ida tug'ilgan. O'qishni a'lo baholarga bitirgach, chet tiliga bo'lgan qiziqish uni Samarqand davlat universitetining nemis tili bo'limiga boshlab keldi. O'qishni imtiyozli diplom bilan bitirib, Paxtachi tumanidagi 24-maktabda o'qituvchilik qildi. So'ng Samarqandga qaytib, pedagogika institutida faoliyat ko'rsatdi.

Oliyohda ustozlar sabog'ini olib, tajriba orttirgan M.Begmatov chet tili fakulteti kasaba uyushma qo'mitasi raisi, dekanning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari vazifalarini sidqidildan ado etdi. Bir muddat Germaniyadagi Erfurt pedagogika universitetida nemis tili bo'yicha amaliyot o'tadi. Germanistika sohasidagi taniqli olimlar

Vilgelm Shmidt, Karl-Ernst Zommerfeldt, Herbert Shrayber va boshqalarning ma'ruzalari bahramand bo'ldi.

Samarqand davlat pedagogika instituti SamDUga qo'shilgach, universitet nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchilik qildi. 1995-yildan e'tiboran yangi tashkil etilgan Samarqand davlat chet tillar institutida faoliyatini davom ettirib, nemis tili tarixi va grammatikasi kafedrasida katta o'qituvchi, institut o'quv bo'limi boshlig'i vazifalarida samarali mehnat qildi.

Domla 1999-yil o'tgan yillar davomida to'plagan boy tajribasi, ilmiy tadqiqotlari samarasida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimlik rufbasini yelkasiga ilgach, Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi fakulteti dekani, nemis filologiyasi kafedrasida mudiri vazifalarini bajardi. Fakultet kafedralarida o'quv jarayonlarini yaxshilash, o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga intildi.

Talabchan olim va mehribon ustoz faoliyati davomida 200 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 2 ta darslik, 10 ga yaqin o'quv, 16 ta uslubiy qo'llanma chop ettirdi. Xalqaro va respublika miqyosidagi bir qator ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar o'qidi. O'nlab shogirdlar tayyorladi.

Ustoz halol mehnati, ilmiy iqtidori bilan rahbariyat va hamkasblar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Samarqand davlat chet tillar instituti nemis tili va adabiyoti kafedrasida professori sifatida "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi" ko'krak nishonlari sohibiga aylandi.

Insonga yonib yashash va ishlash uchun ko'p narsa talab qilinmaydi, - deydi bugun o'zining muborak 70 yoshini qarshilayotgan M.Begmatov. - Fidoyilik, kasbga mehr bo'lsa, shuning o'zi kifoya.

Domla turmush o'rtog'i Ashurov opa bilan uch nafar farzand hamda sakkiz nafar nabirani munosib tarbiyalab kelaypti. Ko'plab shogirdlarning ustoz, ilmdan baxt topib, kamtarlikdan komillik izlayotgan Muxtor Begmatovni qutlug' yoshi bilan tabriklaymiz.

**Ashur YAXSHIYEV, SamDChTI roman-german tillari fakulteti dekani, professor. Sanjar ANORQULOV, nemis tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, dotsent.**

# BUYUKLIK VAQTGA BO'YSUNMAYDI

### NEGA SHOIR UNVONNI OLGISI KELMADI?

Adabiyot tarixida Rauf Parfi o'ziga berilgan yuksak unvonni olmagan shoir sifatida qolgan. Xo'sh, nimaga shunday bo'lgan edi?

1999-yilda Rauf Parfi "O'zbekiston xalq shoiri" unvonini berish to'g'risida qaror qabul qilindi. Yuqoridagilar bu g'ayrioddiy shoirning she'rlarini odamlar katta qiziqish bilan o'qib, uni tirik klassik deb atay boshlaganini yaxshi bilishardi.

Ammo Rauf Parfi mukofotni qabul qilmadi va O'zbekiston xalqi "qashshoqlik va qonunsizlik" sharoitida yashayotgan, ko'plab vatandoshlari xorijda ro'zg'or tebratish maqsadida mamlakatni tark etayotgan bir paytda bu mukofotni qabul qila olmasligini aytdi.

Bu voqeadan so'ng Parfi she'rlarini hech qayerda bosmaslik kerakligi haqida ko'rsatma berildi. U hatto ishidan ham ayrildi. Shoir gazeta-jurnallar tahririyatiga yozuvchi do'stlarini ko'rgani kelganida: "Rauf aka, tushuning, she'rlaringizni chop etsak, bizni yopishadi, buning nima keragi bor?", deyishdi. Ammo yana bir ajablanarli tomoni shundaki, Rauf Parfi o'zbek adabiyotining tirik klassigi sifatida o'sha yillarda maktab darsligining bir bobini uning ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, 2003-yilda shoirning 60 yilligi munosabati bilan u haqda ba'zi davriy nashrlarda bir qancha maqolalar chop etilgan.

## Ulug'langan ustozlar

Bu yil mamlakatimizda O'qituvchilar va murabbiylar kuni keng nishonlanib, ustozlarga alohida ehtirom ko'rsatildi. Rahbarlar ta'lim bergan muallimlarining holidan xabar olgani, bir tadbirkor yigit ustoziga 2 xonali uy sovg'a qilgani haqida va boshqa shu kabi quloqqa xush yoquvchi xabarlar tarqaldi.

Keksalik gashtini surayotgan mehnat faxriysi bo'lsam-da, shunday qutlug' ayyom arafasida ustozlarimni yo'qlagim keldi. Ularning biri Ishitxon tumani Kamar qishlog'ida tug'ilib o'sgan, bugungi kunda 82 yoshni qarshilayotgan faxriy o'qituvchi, xalq maorifi a'lochisi Barno Sulaymonovni bayram bilan qutlash bahonasida xonadonida bo'lib, dildan suhbatlashdim, duolarini oldim.

Bugun maktablarda dars berayotgan o'qituvchilarga, ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarga havasim keladi, - deydi ustoz. - Biz o'qigan va dars bergan davrlarni eslagim



**Nuriddin YAHYOYEV, Ishitxon tumani.**

cha, bir kuni kechasi do'stlari uni ko'rgani kelishdi, lekin shoir Toshkentda propiskadan o'tmaganligi sababli kelganlarni ichki ishlar organlari xodimlari deb o'ylab, ularga uzoq vaqt eshikni ochmadi. Ajablanarlisi shundaki, bunday hollarda uni huquq-tartibot idoralari qutqarib qolgan narsa - Islom Karimovning shaxsiy imzosi muhrlangan Xalq shoiri guvohnomasi edi. Rauf bu unvondan bosh tortgan bo'lsa-da, keyinroq uni olgan va bu hujjatni doim yonida olib yurgan.

### U HATTO SEVIMLI KITOBLARINI SOTISHGA MAJBUR BO'LDI

Raufning puli bo'lmaganida ba'zan aeroportga kelib qolardi. Mahalliy aviakompaniyalar esa deyarli har kuni poytaxtga viloyat shoirilarini olib kelishardi, ular ustozini suhbatlashish va yangi she'rlar eshitish uchun restoranga taklif qilishar, pul berishardi.

Umrining so'nggi yillarda Rauf Parfi she'rlari deyarli chop etilmaganiga qaramay, uning muxlislari kamaygani yo'q, aksincha - uning satrlari muxlislar orasida yanada yo'yildi, she'rlari yodlandi. Bu - haqiqiy iste'dodining kuchi edi.

U inson qadr topgan yurtda yashashni orzu qilari, mamlakatda yolg'on, poraxo'rlik, o'zboshimchalik, konformizm, aldash, ura-urachilik avj olib borayotganini hazm qila olmasdi.

### SUKUNAT - ENG DAHSATLI HAYQIRIQ

Bir paytlar shoirlikning maqsadi haqida gap ketganida, Rauf Parfi she'rlarining nashr etilishi yoki chiqmasligini emas, balki ularning yaratilish jarayonining o'zi muhimligini aytgandi, - deb eslaydi kinorejissyor Alisher Hamdamov. - Bundan u hech narsa bilan taqqoslanmaydigan haqiqiy zavq olardi. Uning so'zlariga ko'ra, shoir she'r yozish chog'ida havoga ko'tarilib, o'z ixtiyori-dan mutlaqo tashqari holatga bo'lar ekan.

Zamondoshlarining aytishicha, Rauf Parfi quydagi so'zlarini takrorlashni yaxshi ko'rardi: eng dahshatli faryod - bu sukunatdir. Sharoit taqozosi tufayli umrining

Ustoz turmush o'rtog'i Anorxol aya bilan 4 o'g'il, 3 qizni bilimli, mehnatsevar qilib tarbiyaladi. Farzandlarning 4 nafari ota izidan borib, o'qituvchilik kasbini egallagan.

Barno aka bilan suhbatimiz uzoq davom etdi. Ustozlarini xotirladi, bugun nufuzli tashkilotlarda mehnat qilayotgan shogirdlari bilan faxrlanishini aytdi. Yosh avlod ota-onasi va ustozlariga hurmatda bo'lsa, o'qituvchi va murabbiylar ham bugun yaratib berilayotgan imkoniyatlar qadriga yetsa, mehr bilan dars bersa, o'z ustida ishlasa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ta'kidladi.

so'ng-gi yillar-ida rasmiy doiralarga to'g'ri kelma-gani uchun qalbida to'plangan hamma narsani ifoda etish im-koniyatidan mahrum bo'lib, sukut saqlashga majbur bo'ldi.

Uning qalbida tinimsiz jang bo'lib turardi, shoirning o'sha davrdagi ijodi qarama-qarshiliklarning birligi va kurashini ifodalaydi, bu hissiy chiqish, portlash imkoniyatiga ega emas edi.

Ta'kidlash joizki, Rauf Parfi she'rlari Viktor Sosnora, Nikolay Rubtsov kabi mashhur rus shoiri bo'lgan.

Rauf Parfi Rubtsov she'rlarini o'qib, ular unga ruhan qanchalik yaqin ekanini angladi, - deb eslaydi O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg. - O'tgan asrning yetmishinchi yillarining boshlarida, Rubtsovning o'limidan ikki yil oldin Parfi uni uzoq rus qishlog'ida topdi va u erda uzoq vaqt o'z do'stining yog'ochdan yasalgan uyida qoldi.

Keyinchalik bu ikki do'st bir-birlarining asarlarini o'zlarining ona tillariga tarjima qilishdi.

### BUTUN JAHON SHE'RIYATI UNING UYI EDI

Haqiqiy shoir Rauf Parfi boqiy she'riyat XX asrning 70-yillaridan boshlab adabiy jarayonning diqqat markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaverishi muqarrar. O'tgan yuz yillikdagi o'zbek she'riyatining keyingi yarim asrini Rauf Parfi ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi, - deydi taniqli shoir va jurnalist Karim Bahriev. - Rauf Parfi she'riyatining bosh mavzusi - Inson, Vatan, Turkiston va turkiy dunyo birligi. Shoir o'zining hayotiy ideallariga sodiq, e'tiqodida bukilmas hayot kechirdi. Bevafoqlarga ham sodiq edi, lekin iymonini sotmadi. U XX asrdagi inson fojiasini muqaddas ona tilida ifodalashga qaror qilgan mard shoiridir. Uning go'zallik hodisasiga aylangan iztirobli she'riyatida sinab ko'rish, Iroda, Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning rangini ko'rish, ularning yuziga qarash mumkin.

Rauf Parfi faoliyat ko'rsatgan "Jahon adabiyoti" jurnalida jahon mumtoz asarlarining o'zbek tiliga eng sara tarjimalari taqdim etilgan.

### SHOIR VA ZAMON YUZMA-YUZ UCHRASHADI

Adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday fikrda: Rauf Parfi nazariida shoir "qora qalamni mahkam tutgan", ma'yus va g'amli o'ylarni sochuvchi, norozi odamdur. Ammo uning noroziligi birinchi navbatda o'ziga qaratilgan. 70-yillarda shoir yozganidek: "O't bilan suv yuzma-yuz uchrashganday, shoir va zamon yuzma-yuz uchrashadi". Zero, shoir qalbida "buyuk e'tiqod - muruvvat ilhom" va qasos, "sobit o'ch" yashaydi.

Rauf Parfi o'zining obrazli timsollardan qayta tiklangan badiiy tafakkuri ilk satrlardan qayta erkinligi va hurriyat ruhi, zulmga qarshi isyon, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlikka qarshi kurash g'oyalari bilan sug'orilgan edi.

Rauf Parfi hayot haqiqatidan ko'ra ko'proq qalb haqiqatiga intildi. Nazarimda, u kundalik hayotda qanday yashamasin, odamlar bilan qanday muloqotda bo'lmasin, she'r yozayotganda qandaydir ma'naviy yuksaklikdan yozgan, - deb davom etadi K.Bahriev. - Satrlari fashohatli, dono, so'roqli, vij-

**MATBUOT UYI**

**Zarafshon**

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 390 nusxada chop etildi. Buyurtma 601. Hajmi 2 bosma tablo, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**X.ERNAZAROVA.**

**Sahifalovchi:**

**A.ISMOILZODA.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda